



**MUSTAQILLIK VA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA
TAMOYILLARI KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISHI**

Absalomova Dilnoza To'lqin qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishish jarayoni, mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasining mazmun-mohiyati hamda ularning jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Unda mustaqillikning xalq hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarga olib kelgan ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash va ma'naviy yuksalishni ta'minlash yo'lidagi xizmatlari tahlil etilgan. Maqolada milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy qadriyatlarni rivojlantirishga oid takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Mustaqillik, milliy istiqlol, ma'naviyat, vatanparvarlik, qadriyatlar, suverenitet, Islom Karimov, huquqiy davlat, demokratik jamiyat, yoshlar tarbiyasi.*

Xalqimiz o'zining asriy orzusi bo'lmish milliy mustaqillikni qo'lga kiritdi. Mustaqillik tufayli tobe'lik va qaramlikdan ozod bo'lgan davlatimiz ichki va tashqi siyosatda hech kimning aralashuvi, tazyiqi va ko'rsatmalarisiz xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritmoqda. Mustaqillik xalqimizga yurtimizning bebaho er osti va er usti boyliklariga chinakamiga egalik qilish huquqini berdi.

Mustaqillik tushunchasining ma'no mazuni borasida Yurtboshimiz shunday deydi: "Mustaqillik bizga nima berishini bilardek. O'z taqdirimiz, farzandlarimiz kelajagini o'zimiz hal etish imkomga ega bo'ldik. O'z erimiz, boyliklarimizga sohiblik qila boshladik. Qisqa vaqt ichida mustaqillikning ne'matlarini tatib ko'rdik"¹. Ushbu fikrdan xulosa qilsa bo'ladiki, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyingi o'tgan qisqa bir davr ichida Respublikamizda demokratik, adolatli va huquqiy davlatchilikni shakllantirish, xalqimizning farovonligini ta'minlash, uning ma'naviy-ruhiy poklanishi va tiklanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlagandek, "O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va

¹ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., "O'zbekiston" 2011, 426 b.



bugun ham e'tiborimiz markazida tur- ganini ta'kidlash lozim".²

Bu fikrlar yurtimizning har bir vatanparvar fuqarosini o'yga toldiradi va xushyorlikka chaqiradi. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tish, huquqiy demokratik davlat qurish, yangicha fikrlaydigan, mehnatga yangicha munosabat

bilan qaraydigan yoshlami tarbiyalash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish yo'lidan bormoqda: "Barchamizga ma'lumki, millat va xalqning ruhi, dunyoqarashi va turmush tarzini ifoda etadigan milliy ma'naviyatga munosabat, uni zamon talablari asosida rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va tafakkurini o'zgartirish masalasi har tomonlama chuqur va puxta o'ylab ish yuritishni talab qiladi"³.

Bu o'zgarishlar, jamiyatning ma'naviy hayotini yuksaltirish va milliy tiklanish bilan bog'liqdir. Mustaqil O'zbekistonimizni dunyoga tanitishda, jahon xalqlarini mamlakatimizda olib borilayotgan ulkan ishlar bilan tanishtirishda, xalqimizga xos bo'lgan yuksak ma'naviyat behuda emasligini, uning asrlar davomida shakllanib kelgan tarixiy-falsafiy-diniy ildizlarini tiklash muhim o'rin tutadi.

Mustaqillik -(arab. tobe emaslik, ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik) - insonning erkin va ozod ravishda, o'z ixtiyori bilan boshqalarga bo'ysunmasdan ish yurita olishi, millat, davlat va jamiyat hayoti, ulaming taraqqiyotini, ustuvor maqsad va vazifalarini mustaqil tarzda amalga oshirishilini anglatadi. Mustaqillik barcha jabhalardagi har qanday kamsitish, tobelikni inkor etadi, o'zaro hurmat, bir- birini qadrlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanib ish ko'rish, keng

dunyoqarash va erkin tafakkur asosida yashash, fikrlash, o'z hayotini erkin o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi.

Mustaqillik – davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyatda ko'rsatishi. Mustaqil tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o'zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir⁴.

Mustaqillik — davlat yoki xalqning boshqa davlatlar, tashqi kuchlar yoki chet el siyosatidan mustaqil holda o'z ichki va tashqi ishlarini belgilash, qonunlar qabul qilish va ularni amalga oshirish huquqidir. Mustaqillik siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga oladi.

Milliy istiqlol (sovereignty) — davlatning ichki va tashqi suverenitetini anglatadi: hududiy yaxlitlik, fuqarolarning huquqiy barqarorligi, tashqi siyosatda mustaqil pozitsiyani saqlash, hamda milliy madaniyat va tilni himoya qilish kabi elementlar. Istiqlol mustaqillik

² O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "Ma'naviyat", 2008, 6-7 b.

³ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "Ma'naviyat", 2008, 81-82 b..

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustaqillik>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



g'oyasining yanada kengroq, davlat suvereniteti va milliy ong bilan chambarchas bog'liq shaklidir.

Mustaqillik har bir xalqning, millatning, har bir fuqaroning o'z iste'dodi va imkoniyatlarini erkin tarzda namoyon etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'l ochadi. Mustaqillik shaxs, oila, gumh, jamoa, millat, hudud, davlat, umuminsoniyatga mansub darajalarga bo'linadi. XVIII-XX asrlar insoniyat tarixida mustamlakachilar asoratiga tushib qolgan xalqlarning mustaqil davlatlar tuzish uchun kurashlari davri bo'ldi. Shimoliy Amerika aholisining mustaqillik uchun kurashi 1776 yilning iyulida "Mustaqillik deklaratsiyasi"ni qabul qilish bilan yakunlandi. XVIII asming 90-yillaridan boshlab XIX asming birinchi choragigacha bo'lgan davrda Lotin Amerikasi xalqlari ispan, portugal, fransuz mustamlakachilariga qarshi kurashib, birin-ketin o'zlarining mustaqil davlatlarini barpo etdi. 1830 yilda YUNoniston usmonli turklar imperiyasidan ajralib, o'z Mustaqiligiga erishdi. XVIII-XIX asrlarda dunyoning qariyb yarmini o'z mustamlakalariga aylantirgan Buyuk Britaniya istibdodiga qarshi olib borilgan kurashlar natijasida 1876 yilda Kanada, 1901 yilda Avstraliya, 1910 yilda Janubiy Afrika, 1921 yilda Irlandiya, 1947 yilda Hindiston va Pokiston xalqlari o'z Mustaqillikini qo'lga kiritdi. Jahon tarixida 1917 yilda paydo bo'lib, zo'ravonlik tizimini yuzaga keltirgan sobiq ittifoq 1991 yilgacha saqlanib keldi. Shu yili xalqimizning azaliy orzusi ushaldi: 1991-yil, 31 avgustda O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi va milliy davlatchiligini tikladi.

O'zbekiston mustaqillikni osonlik bilan qo'lga kirititgani yo'q. Mustaqillikka erishish, uning saqlab qolishda sobiq prezident LKarimov xizmatlari kattadir. Yurtboshimiz o'sha murakkab bir davrda hokimiyat tepasiga keldi. O'ta tadbirkor rahbar, mohir diplomat, chuqur bilim sohibi va uzoqni ko'raoladigan davlat arbobi sifatida tarix sahnasiga keldi. O'sha paytdagi o'ta murakkab sharoitda "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi⁵ degan xulosaga kelishi bejiz emas. Eng murakkab vaziyatda xalq bilan birga bo'ldi, uning dardlarini eshitdi va shunga qarab yo'l-yo'riq tutdi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib aytish mumkinki: O'zbekiston mustaqillikka erishgan kun – xalqimiz tarixidagi eng buyuk va taqdiriy voqealardan biridir. Mustaqillik tufayli xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z yerining haqiqiy egasi bo'lish, milliy qadriyatlari va ma'naviyatini tiklash imkoniga ega bo'ldi. Mustaqillik yurtimizda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarida tub o'zgarishlarga zamin yaratdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatda mustaqil siyosiy yo'l tanlandi, huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning mustahkam poydevori yaratildi. Milliy istiqlol g'oyasi — xalqning o'zligini anglash, milliy manfaat va qadriyatlarini asrab-avaylash, shu bilan birga umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un holda yashash g'oyasini ilgari suradi. Bu g'oya jamiyatda tinchlik, barqarorlik, millatlararo totuvlik va ma'naviy yuksalishning asosi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mustaqillik — bu

⁵ I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T., O'zbekiston, 2011, 8 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'UYALAR



yakun emas, balki doimiy ravishda himoya, e'zoz va taraqqiyot talab etadigan yuksak qadriyatdir. Uni saqlab qolish va mustahkamlash barchamizdan vatanparvarlik, hushyorlik, mehnatsevarlik hamda fidoyilikni talab etadi. Ushbu ma'lumotlar asosida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

birinchi, milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirish maqsadida umumta'lim muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida tizimli ravishda targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur;

ikkinchi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali mustaqillik g'oyasining mohiyatini, uning xalq hayotidagi o'rnini yanada chuqurroq yoritish lozim;

uchinchi, vatanparvarlik ruhidagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali yosh avlodda milliy g'urur, o'zligini anglash, tarixga hurmat tuyg'ularini mustahkamlash kerak;

to'rtinchi, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish siyosatini davom ettirish — bu milliy istiqlol mafkurasining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., "O'zbekiston" 2011, 426 b.
2. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "Ma'naviyat", 2008, 6-7 b.
3. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch", "Ma'naviyat", 2008, 81-82 b..
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mustaqillik>
5. I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., O'zbekiston, 2011, 8 b.
6. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 4 (2024): 22-27.
7. O'G'LI, X. M. Q. (2024). GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 4, 22-27.
8. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." BARCHA SOHALAR BO 'YICHA 32.10 (2023).
9. Sadriyevna, A. L., & Qaxor o'g'li, X. M. (2023). KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI. BARCHA SOHALAR BO 'YICHA, 32(10).
10. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.26 (2024): 384-388.



11. Xoliqulov, M. Q. O. G. L. (2024). MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 384-388.
12. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G. G'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." *A. NAVOIYNING AR." BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI."* *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI* 4 (2024): 24-28.
13. O'G'Li, X. M. Q., & G'Ofirova Muxlisa, G. (2024). Ofur Qizi." *A. NAVOIYNING AR. BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI QARASHLARI."* *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4, 24-28.
14. Kholikulov, Muhammad, and Hasan Jumanov. "THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 252-261.
15. Kholikulov, M., & Jumanov, H. (2025). THE CONCEPT OF PERSONAL PERFORMANCE IN THE THOUGHT OF ABU MANSUR MATURIDI. *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal*, 2(1), 252-261.
16. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." *Analysis of world scientific views International Scientific Journal* 3.1 (2025): 141-149.
17. Azlarova, O. X. (2025). DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA). *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 3(1), 141-149.
18. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." *Академические исследования в современной науке* 3.27 (2024): 100-105.
19. Abduqodirov, A., & Xoliqulov, M. (2024). YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI. *Академические исследования в современной науке*, 3(27), 100-105.
20. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).
21. Kholikulov, M. (2023). Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism.
22. Muhammad, Xoliqulov, and Obruyeva Dilbar. "TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI." *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS* 1.7 (2025): 27-32.
23. Muhammad, X., & Dilbar, O. (2025). TALABA YOSHLAR ONGIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL



ASPEKTINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI. STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS, 1(7), 27-32.

24. Xoliqulov, M. Q., and H. N. Jumanov. "GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI." Лучшие интеллектуальные исследования 40.1 (2025): 203-210.

25. Xoliqulov, M. Q., & Jumanov, H. N. (2025). GLOBALIZATSIYA JARAYONINING SAN'AT VA BADIY ADABIYOT VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLARGA TRANSFORMATIV TA'SIRI. Лучшие интеллектуальные исследования, 40(1), 203-210.

26. qizi Rustamova, Odinabonu Shavkat. "MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING "BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA)." Analysis of world scientific views International Scientific Journal 3.1 (2025): 150-157.

27. qizi Rustamova, O. S. (2025). MARKAZIY OSIYODA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY VA GEOSTRATEGIK O'RNI VA ROLI (ZBIGNEV BJENISKIYNING "BUYUK SHAXMAT TAXTASI ASARI ASOSIDA). Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 3(1), 150-157.